UO‘K 81

STILISTIK KONVERGENSIYALARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Ochilova Dilafruz Baxramovna,
Qarshi davlat universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti (PhD)
odilafruz3@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Jon Draydenning “Avrangzeb” dramasida qo’llanilgan stilistik konvergensiya xususiyatlari bayon etilgan. Maqolada stilistik konvergensiyalarning turlari, pragmatik funksiyalariga izoh berilib, misollar orqali tahlil qilingan. Stilistik konvergensiya badiiy adabiyotda matnning ma’nosini chuqurroq anglashga, matn ichidagi g’oyani boshqa fikrlar bilan bog’lab, yangi ma’noni kitobxon idrokiga talqin qilishda ahamiyatli ekanini ifoda etilgan. Adibning dunyoqarashi, his-tuyg’ulari turli ifoda vositalari va troplari orqali ifodalanishi o’ziga xos usul sifatida namoyon etilgan. Mazkur maqolada stilistik konvergensiyani faqat lingvistik jihatdan o’rganish maqsad qilingan.*

Kalit so‘zlar: *drama, restavratsiya, konvergensiya, metafora, o’xshatish, pragmatik funksiya, paradoks*

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СТИЛИСТИЧЕСКИХ КОНВЕРГЕНЦИЙ

Аннотация*. В данной статье рассматриваются особенности стилистической конвергенции, использованной Джоном Драйденом в драме «Аурангзеб». В статье раскрываются виды стилистической конвергенции и объясняются её прагматические функции, которые анализируются на конкретных примерах. Отмечается, что стилистическая конвергенция в художественной литературе имеет важное значение для более глубокого понимания смысла текста, поскольку позволяет соотносить содержащуюся в тексте идею с другими мыслями и тем самым интерпретировать новое значение в восприятии читателя. Мировоззрение и эмоциональные переживания писателя проявляются через различные выразительные средства и тропы, что представляет собой особый способ художественного выражения. В данной статье стилистическая конвергенция рассматривается исключительно с лингвистической точки зрения.*

Ключевые слова*: драма, реставрация, конвергенция, метафора, сравнение, прагматическая функция, парадокс.*

LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF STYLISTIC CONVERGENCES

Abstract. *This article examines the features of stylistic convergence employed by John Dryden in his drama “Aureng-Zebe.” The article identifies the types of stylistic convergence and explains their pragmatic functions, which are analyzed through specific examples. It is emphasized that stylistic convergence in literature plays an important role in achieving a deeper understanding of the meaning of a text, as it enables the ideas expressed within the text to be associated with other ideas and thus allows new meanings to be interpreted in the reader’s perception. The writer’s worldview and emotional experiences are expressed through various expressive means and tropes, which constitute a distinctive method of artistic expression. The present article aims to examine stylistic convergence exclusively from a linguistic perspective.*

Keywords: *drama, Restoration literature, convergence, metaphor, simile, pragmatic function, paradox.*

Kirish. Stilistik konvergensiya har qanday badiiy matnning muhim omili hisoblanib, adibning his-tuyg‘ulari va dunyoqarashlarini kitobxonga yetkazib berishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Stilistik konvergensiya (lotincha convergere – yaqinlashish, moslashish) – bitta stilistik uslubni bajarish natijasida bir yoki bir qancha stilistik vositalarining o‘zaro ta’siriga asoslangan murakkab uslubiy birikma hisoblanadi. (Konvergensiyaga ta’rif berganda, uni kontaminasiya tushunchasi bilan adashtirish mumkin emas, ya’ni konvergensiya bu bir necha stilistik troplarning bir joyda to’planishi bo’lsa, kontaminasiya bir necha iboralarni qo’shilib, o’zgacha ma’no ifoda etilishidir).

Konvergensiya xususiyati jihatdan *bir yadroli* (odnofokusniy) konvergensiya (bunda muayyan bir trop asosiy ma'no anglatuvchilik vazifasini bajaradi) va *yadrosiz (mnogofokusniy)* konvergensiyalarga ajratiladi (bu turdagi konvergensiyada barcha stilistik vositalar bir xil mavqega ega bo'lib, dominant trop yoki obraz mavjud emas) [1, 136].

Yadrosiz stilistik konvergensiyada barcha stilistik vositalar bir xil mavqega ega bo'lib, dominant trop yoki obraz mavjud emas. Bunday konvergensiya matning bir qismida to'planib, obrazlilikni yuzaga keltirish va ma'noni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunos M.Riffaterning [2, 88] ta'kidlashicha, "konvergensiya – bir necha stilistik vositalarning bir joyda to'planishi, biroq har biri alohida vosita bo'lsa-da, birgalikda matnga qo'shimcha ekspressivlikni ifoda etadi".

Rus olimi A.P.Skovorotnikov [3,149]ning fikriga ko'ra, *"stilistik konvergensiya – bir necha stilistik vositalarning hamkorligi orqali yagona vazifa bajarishi", demakdir*. Tilshunos konvergensiyani yaxlit (bir gapda bir necha stilistik vositalarning uchrashi) va tarqoq (bir matnning turli qismlarida qo'llanilgan stilistik vositalar)ga ajratgan.

I.V. Arnold [4, 100] o'z o'rnida konvergensiyaga quyidagicha ta'rif berib o'tgan: *"konvergensiya deb, bir joyda bir necha stilistik vositalarning to'planib, barchasi birgalikda yagona stilistik funksiyani bajarishiga aytiladi. Bunda stilistik vositalar bir-birini to'ldirib, ma'no jihatdan kuchaytirganligi sabab bu kabi stilistik kombinatsiya tinglovchi (kitobxon) e'tiboridan chetga qolishining imkoni bo'lmaydi".*

Tilshunoslar stilistik konvergensiyani tuzilishi jihatidan to'rt turga ajratishgan*:*

1) *leksik;*
2) *leksik-sintaksik;*
3) *fono-leksik;*
4) *aralash konvergensiya*.

Soni jihatdan esa binar va ko'p turkumli (troplik) konvergensiyalarga ajratilgan [3, 254]. V.M.Nikelbaum [1, 139] stilistik konvergensiyalarning joylashgan o'rniga qarab, ularni *zanjirsimon*, ya'ni bir matnda yoki asarda ketma-ket bir-biriga bog'lanib ketgan konvergensiya va *uzilishli (tarqoq)* konvergensiya – bir matn yoki asarning turli qismlarida alohida uchrab, o'zaro bog'liq bo'lmagan konvergensiya turlariga bo'lgan.

Shuningdek, olim o'z o'rnida stilistik konvergensiyani bajarayotgan vazifasi jihatidan quyidagilarga ajratgan:

1) ma'lumotning muhim bo'lgan qismini ajratib ko'rsatuvchi;
2) matnning bir qancha qismlarini bir-biriga bog'lab, ular o'rtasida yaxlitlikni ta'minlovchi;
3) matnning estetik va ekspressivlik xususiyatlarini kuchaytiruvchi.

S.A. Kuzmenko [5, 13] stilistik konvergensiyalarning bir qancha pragmatik funksiyalarini ajratib ko'rsatgan:

1) tasviriy (muayyan joy yoki obyektni tasvirlovchi);
2) xarakterlovchi (personaj yoki subyektni tasvirlovchi);
3) emotsional (his-tuyg'u, kayfiyatni ifoda etuvchi);
4) munosabatlarni izohlovchi (baholovchi pragmatik xususiyatli stilistik konvergensiya);
5) dolzarblikni ko'rsatib beruvchi pragmatik xususiyatli (matnda dolzarb qism yoki qismlarini ajratib ko'rsatuvchi).

Muhokama. Jon Drayden "Avrangzeb" pyesasi syujetida dramaturg yuksak aql, ma'naviyat, aniqroq aytganda, intellektual nuqtayi nazaridan o'ziga xos falsafiy, ma'naviy, siyosiy va ijtimoiy g'oyani tomoshabinga yetkazib berishni ko'zlagan. Shu sabab, yuqorida sanab o'tilgan stilistik konvergensiyalarning pragmatik funksiyalari misollar orqali ko'rsatib beriladi.

1. Tasviriy pragmatik funksiyali stilistik konvergensiya matnda badiiy obrazni yanada aniqroq tasvirlashga, matndagi muhim elementlarni, kichik detallarni ham kitobxon nigohidan qochirmay, yetkazib berishga xizmat qiladi. Fojiada o'ziga xos falsafiy, siyosiy va ijtimoiy g'oyani tomoshabinga yetkazib berish maqsadida Jon Drayden stilistik vositalardan ustalik bilan foydalanib, siyosiy, tarixiy voqealar rivojiga hamda har bir obrazga mohirona ta'rif berib o'tgan. Shu bilan birga, Drayden o'sha davrni, davlatdagi hamda saroydagi holatni qalamga olar ekan, yillar va asrlar o'tsa-da, kitobxonga o'sha davr vaziyatini aniq yetkazib berishga erishgan.

Tahlillar va natijalar. Jon Draydenning "Avrangzeb" fojiasida tasviriy pragmatik funksiyali stilistik konvergensiya g'oyaviy konsepsiyasiga binoan *urush va jang maydonlarini; siyosiy vaziyatni; davlatdagi vaziyatni tasvirlovchi; dramadagi har bir obrazga ta'rif beruvchi* bo'limlarga bo'lib tahlil qilindi.

A. Urush va jang maydonlari tasviri.

Mazkur parchada dramaturg urush vahimasi hammani sarosimaga solganligini, xalqning tun-u kun halovati yo‘qolganligini va xalq boshidan o‘tkazayotgan azob va jafoni badiiy vositalar orqali yetkazib berishga harakat qilgan.

Indamora.

The night seems doubled with the fear she brings,
And o'er the Citadel new-spreads her wings.
The morning, as mistaken, turns about,
And all her early fires again go out.
Shouts, cries, and groans first pierce my ears, and then
A flash of lightning draws the guilty scene,
And shows me arms and wounds and dying men.
Ah, should my Aureng-Zebe be fighting there,
And envious winds distinguished to my ear
His dying groans, and his last accents bear! [6.95]

Indamora.

Qo‘rquv tufayli tun ikki hissa cho‘zilgandek.
Va go‘yo qo‘rg‘on qal’a uzra qanotlarin yoygandek.
Tong otardi xuddi xato qilganidek,
Uning barcha mash’alalari bo‘ldi yoqilgandek,
Motamlar, qichqiriqlar va nolalar teshib yuborguday quloqlarni.
Yorug‘lik nuri ko‘tarilib, ko‘rsatdi bu mash’um manzarani,
Qurol-yarog‘lar, yaradorlar, halok bo‘lganlarni ko‘rsatdi menga.
Voh, mening Avrangzebim ham o‘sha yerdamikan,
Go‘yo badbin shamol menga keltirayotganidek
O‘limi oldidan so‘nggi vidolashuv nolasin [7, 211].

Dramaning bu qismida jang maydoni, insonlar his-tuyg‘usi va o‘sha yerdagi holat stilistik vositalar orqali yaqqol tasvirlangan. Bu bir yadroli stilistik konvergensiya, garchi antitezaga asoslangan *“The night”* va *“The morning”* kabi so‘zlarga nisbatan jonlantirish ishlatilgan bo‘lsa-da, metafora butun matnda dominantlik qilgan. Joylashuvi nisbatan zanjirsimon SK bo‘lib, son jihatidan ko‘p tropli hisoblanadi.

“*And shows me arms and wounds and dying men”* misrasida gradatsiya ishlatilib, ma’no kuchaytirilgan.

“And envious winds distinguished to my ear
His dying groans, and his last accents bear”

Bu qatorlarda *envious/hasadgo‘y* va *winds/shamol* so‘zlari turli kollokatsiyalarga mansub bo‘lib, epitet hamda jonlantirish stilistik vosita sifatida matnda kuchli ekspressivlik vazifasini bajargan.

B. Siyosiy vaziyatning tasvirlanishi.

Dramaning I pardasida Avrangzeb sohibjamol asira qiz (to‘qima obraz) Indamorani sevib qoladi. Sevishganlar birga bo‘lishni orziqib kutadilar. Shu orada to‘ng‘ich farzandlar Doro Shukuh va Shujo shoh toj-u taxtni egallash niyatida poytaxtga yurish qilishadi. Shahzoda Avrangzeb ukasi Murodbaxsh bilan ota tarafida bo‘lib, akalariga qarshi qo‘shin tortadi. Jangda to‘ng‘ich shahzodalar qo‘shini mag‘lub bo‘ladi. Avrangzeb poytaxtga, otasi va muhabbati oldiga oshiqadi. Saroyda ham vaziyat chigal, fitna, xufiyona rejalar tuzayotgan saroy a’yonlari vaziyatni yanada keskinlashishiga sabab bo‘lganligi quyidagicha ta’riflangan:

The ministers of state, who gave us law,
In corners, with selected friends, withdraw;
There, in deaf murmurs, solemnly are wise,
Whisp’ring like winds ere hurricanes arise.
The most corrupt are most obsequious grown,
And those they scorned, officiously they own [6, 19].

Davlat vazirlari bizga qonunlarni belgilashgan,
Ittifoqdosh (do‘st) tanlab, o‘zlari burchaklarga bekinishgan.
O‘sha yerda kar-soqov bo‘lib, o‘zlaricha donoliklar qilishar.
Shivirlashi shamoldek bo’lsa-da , katta to‘fonlarni yetaklar.
Poraxo‘rlik oshgan sari laganbardorlikni ham orttirar.
Kimdan nafratlanishsa, shular ustidan hukmlarin o‘tkazar [7, 25].

Ushbu drama parchasida keltirilgan stilistik konvergensiya tarkibi troplarga bo‘lib tahlil qilindi:

There, in deaf murmurs, solemnly are wise, - ironiya (irony)

Whisp'ring like winds ere hurricanes arise – gradatsiya, o‘xshatish (gradation, simile). Hurricane – to‘fon so‘zi orqali, saroyda uyushtirilgan xufiyona fitnalar oxiri to‘fonga, ya’ni aka-ukalar o‘rtasida xunrezliklar, taxt uchun jang-u jadallarga olib kelgani nazarda tutilgan.

Dramaning bu qismida Drayden Hindistondagi real tarixiy voqealarni qalamga olgan. Yetmish yoshni qarshilagan Shoh Jahon betob bo‘lib to‘shakka mixlanib qolishi to‘rtala o‘g‘ilning o‘zaro taxt uchun kurashlariga sabab bo‘ladi, shu sabab saroy a’yonlari har tomonga bo‘linib, xufiyona rejalar tuzishga kirishadi va bu keyinchalik og‘a-inilar o‘rtasida shafqatsiz xunrezliklarga olib keladi.

“There, in deaf murmurs, solemnly are wise, Whisp’ring like winds ere hurricanes arise” – *O‘sha yerda (saroy a’yonlari) kar-soqov bo‘lib o‘zicha donoliklar qilishar, shivirlashi shamoldek, katta to‘fonlarni yetaklar*. Dramaning bu qismida Drayden mahorat bilan ironiya stilistik vositasi orqali saroy a’yonlarini harakatlarini tasvirlar ekan, keyingi qatorda ularni burchaklarda xufiyona pichirlashi avval shamolga, keyin to‘fonga o‘xshatilgan, ya’ni adib kun sayin vaziyat chigallashib, katta talafotlarga olib kelganligini gradatsiya orqali majoziy ma’noda ifoda etib, matnga kuchli stilistik bo‘yoqdorlik baxsh etgan.

V. Davlatdagi (tarixiy real) vaziyat tasviri

Bernye ma’lumotlariga qaraganda, keksayib qolgan Shoh Jahon to‘rtala o‘g‘li o‘rtasida nizo chiqqandan keyin ularni to‘rt viloyatni boshqarish uchun Hindistonning chor tarafiga yuboradi. Biroq otasining xastaligini eshitgan og‘a-inilar qo‘shin to‘plab, poytaxtga yo‘l oladilar. Bernye talqinida, to‘rt nafar shahzoda hokimiyat uchun kurash olib boradi, uchinchi o‘g‘il sifatida Avrangzebda ikki nafar raqib bor edi. Drayden talqinida esa hokimiyat uchun uch nafar shahzoda kurashadi, Avrangzeb esa otasi tarafida bo‘lib, kasalmand podshohning qonuniy hokimiyatini o‘zining shuhratparast aka-ukalaridan himoya qiladi. Ushbu tarixiy vaziyat Drayden tomonidan quyidagicha qalamga olingan:

Asaph.

Four several armies to the field are led,
Which, high in equal hopes, four princes head.
Indus[1] and Ganges, our wide empire’s bounds,
Swell their ded currents with their natives’ wounds;
Each purple river winding, as he runs,
His bloody arms about his slaughtered sons [6, 17]

Asafxon.

To‘rt o‘g‘lon chor tarafda ulkan qo‘shin tashkil etar,
Yagona umid ila ular uzoq yo‘lga otlanar.
Hind va Ganga, keng imperiya chegaralari qonga botdi,
Toshqin daryolar vatandoshlar xuni bilan to‘ldi.
Har bir irmog‘i jigarrang tus olar, oqqan sari,
Qo‘llari qonga belangan, bu uning o‘g‘lonlarin xuni bari [7, 21].

Parchada muallif tomonidan Ganga va Hind daryolariga nisbatan jonlantirish qo‘llanilib, he –(u) mujskoy roddagi olmosh bilan daryoni otaga qiyoslanmoqda. “*Swell their ded currents with their natives’ wounds”* – bu qatorda (daryo)ga nisbatan jonlantirish stilistik vositasi qo‘llanilib, irmoqlarini qardoshlari xuni bilan to‘ldirgan (bo‘yagan), bu misolda metafora jonlantirish bilan uyg‘unlikda qo‘llanilgan. Keyingi qatorda **“*His bloody arms* *about his slaughtered sons”*** daryoga nisbatan jonlantirish davom ettirilgan. Shuningdek, misrada kesim tashlab ketilib, ellipsis hosil qilingan. Ingliz tili grammatikasi me’yorlariga binoan, *His arms <u>are</u> bloody about his slaughtered sons* bo‘lishi kerak edi.

Muallif tomonidan qo‘llanilgan stilistik konvergensiya davlatdagi notinch vaziyatni emotsional, badiiy vositalar orqali yanada bo‘yoqdor etib tasvirlab, bir yurt farzandlarini bir-biriga qilich ko‘tarib, og‘a-inilar bir-birining qotiliga aylanayotgani tasvirlagan. Daryo so‘zi jonlantirilib, Drayden uni otaga qiyoslaydi, ya’ni chorasiz qolgan padar o‘z o‘g‘lonlarining jasadlarini quchgani sari qo‘llari qonga belangan manzarani metafora orqali tomoshabin (kitobxon) tasavvurida gavdalantirgan.

G. Obrazga ta’rif beruvchi

Stilistik konvergensiyani tasvirlovchi pragmatik tur obrazni va davr suratini tasvirlab, tasavvurda butun (o‘sha davr va shaxslar) portretni, vaziyatni gavdalantirib beruvchi xususiyatga ega. Hind zaminida

[1] Hind daryosi – Janubiy Osiyodagi yirik daryo bo‘lib, Xitoydan Himolay tog‘laridan asosan Hindiston va Pokiston shimoli-g‘arbiy qismidan oqib o‘tadi. (elektron resurs) https://ru.wikipedia.org/wiki

bo‘lib o‘tgan talato‘plarni qog‘ozga tushirgan Bernye ta’rifini Drayden tasviriy pragmatik stilistik konvergensiyasi orqali tarixiy voqelik hamda obrazlarga mahorat bilan ta’rif bergan hamda Yevropa tomoshabini tasavvurida suratini gavdalantirishga erishgan.

F.Bernyening “Mo‘g‘ullar saltanatiga sayohat kundaligi” kitobi bilan J.Draydenning “Avrangzeb” dramasi syujeti o‘rtasidagi uyg’unlik mavjud. Ushbu tarixiy ma’lumot Drayden tomonidan “Avrangzeb” fojiasida quyidagicha yoritilgan:

Arimant.
What Heav’n decrees, no prudence can prevent.
To cure their mad ambition they were sent
To rule a distant province, each alone.
What could a careful father more have done?
He made provision against all but fate,
While, by his health, we held our peace of state.
The weight of seventy winters pressed him down;
He bent beneath the burthen of a crown.
Sickness, at last, did his spent body seize,
And life almost sunk under the disease;
Mortal ‘twas thought, at least by them desired,
Who impiously into his years inquired.
As at a signal, straight the sons prepare
For open force, and rush to sudden war;
Meeting, like winds broke loose upon the main,
To prove by arms whose fate it was to reign [6, 18].

Arimant.
Falak buyurganini hech qanday aql-idrok o‘zgartirolmas
Padari ularning harakatlarin to‘g‘ri yo‘naltirolmas.
Yolg‘iz boshqarishga buyurdi o‘z qo‘rg‘on-u zaminini.
G‘amxo‘r otaning qo‘lidan yana nima ham kelar?
U barchasin oldindan o‘ylab qo‘ygan, ammo taqdir ekan.
Uning sog‘lig‘i davlatimiz tinchligi garovi bo‘lgan ekan,
Yetmish qahraton qishni bosib qoldi yoshi uni,
O‘z toji og‘irlik qilib, bukib qo‘ydi qomatini.
Dard zaif tanasini egallab olayotir,
Va shu tufayli hayoti so‘nib boryotir.
Otaning o‘limi, shu ular xayoli, kamida ular istagi.
Kim va qanday, uning yoshida saltanatni boshqara olar.
Ishorani, vaziyatni kutgandek tayyorlangan farzandlar
O‘t ochishdi va birdaniga toj-u taxt uchun jangga kirishdi
Tutqunlikdan chiqqan shamoldek yoyib, o‘zaro muhokamalar boshlashdi.
Bahslar kim taxtga egalik qilishi haqida qilich ila hal qilishdi [7, 23].

Jon Draydenning “Avrangzeb” tarixiy dramasida Shoh Jahon va taxt vorislari bo‘lgan shahzodalar Doro Shukuh, Sulton Shujo, Avrangzeb, Murodbaxsh va saroy a’yonlarining obrazlari gavdalantirilgan. Shoh Jahon yetmish yoshni qarshilagani, bir yil mobaynida xastalanib to‘shakka mixlanib qolgani va bu aka-ukalar o‘rtasida taxt uchun ayovsiz jang-u jadallarga sabab bo‘lgani, keksayib qolgan ota bu noxushliklarning oldini olish maqsadida to‘rtala o‘g‘ilini Hindistonning turli viloyatlariga hukmronlik qilish uchun yuborganiga qaramay, bu urushni endilikda to‘xtata olmagani ta’riflangan.

Bu aralash (leksik-sintaktik) stilistik konvergensiya turiga mansub bo‘lib, unda bir qancha troplar ishtirok etib, metafora asosiy yadro (dominant) trop sifatida qo‘llanilgan, joylashish jihatidan tarqoq shaklda, son jihatdan ko‘p turkumli konvergensiya sifatida kelgan. *What Heav'n decrees, no prudence can prevent* misrasi so‘zma-so‘z tarjima qilinganida, *falak buyurganini hech qanday aql-idrok o‘zgartirolmas* degan ma’noni anglatadi. Heaven/falak, Alloh ma’nosida kelib, **prudence/**aql-idrok, ehtiyotkorlik ma’nosini anglatib, bu kabi abstrakt tushunchalarga nisbatan jonlantirish qo‘llangan. “**What could a careful father more have done?”** – ritorik so‘rog‘i otaning ojiz holatini tasavvur qilishni tomoshabin (kitobxon)ning o‘ziga havola etadi. Emotsionallikni oshirish maqsadida keyingi qatorlar Shoh Jahon obrazini kitobxon ko‘z oldida gavdalantirib, uning hasratini his etishga yanada ko‘proq undaydi: “While, by his health, we held our peace

of state" – metafora orqali davlatimiz tinchligi uning (Shoh Jahon nazarda tutilgan) sog‘lig‘i evaziga bo‘lgan ekan "The weight of seventy winters pressed him down" misrasida "seventy" – metonimiya, "winters" – metafora orqali shahanshoh yoshi ko‘rsatilgan. "He bent beneath the **burthen of a crown"** – misrasi toj metonimiyasi (davlat ishlarini boshqarish mashaqqatlari nazarda tutilgan) otaning qaddini bukib, zaiflashtirgani aks ettirilgan. "Sickness, at last, did his spent body seize, And life almost sunk under the disease" misralarini quyidagicha ta'riflash mumkin: **Sickness**/dard so‘ziga nisbatan jonlantirish qo‘llanilib, parchada muallif ma'no jihatdan turli kontekstlarga oid so‘zlarni (life-hayot (absrakt ot), sunk – cho‘kmoq, suvga g‘arq bo‘lmoq, *disease/*kasallik absrakt tushunchasi *under* predlogi bilan qo‘llanilganda (ostida) jism, predmetga qiyoslangan), barchasini bir-biriga bog‘lab, majoziy ma'noda *dard zaif tanasini egallab oldi va shu tufayli hayoti so‘nib boryapti* kabi fikrni kitobxon tasavvuriga aniqroq yetkazib berishga harakat qilgan. "Meeting, like winds broke loose upon the main,To prove by arms whose fate it was to reign" misralarida Drayden aka-ukalarning o‘zaro uchrashuvini hamda munozaralarini jilovlab bo‘lmaydigan, hamma joyni vayron etuvchi shamolga qiyoslab, g‘isht qolipdan ko‘chganligini, taxt vorisligini qo‘lga kiritish uchun aka o‘z ukalari bilan ayovsiz kurashga kirishgan mudhish sahnani tasvirlagan.

2. **Xarakterlovchi pragmatik funksiyali** stilistik konvergensiya orqali badiiy asardagi subyektning xatti-harakatlari, tabiati hamda psixologik holati tasvirlanib, bunda ichki monolog yoki uchinchi shaxs tomonidan obrazga beriladigan ta'rif yordamida amalga oshiriladi [5.16].

Tasvirlovchi pragmatik funksiyali stilistik konvergensiya obrazning tashqi qiyofasini kitobxon tasavvurida gavdalantirgan bir vaqtda xarakterlovchi pragmatik funksiyali stilistik konvergensiya obrazning shaxsiyatini, tabiatini, fe'l-atvorini ifoda etadi. Dramada har bir qahramonga alohida ta'rif berilgan. Keksayib qolgan Shoh Jahon kitobxon nigohida quyidagicha gavdalantirilgan:

He promised in his east a glorious race;
Now, sunk from his meridian, sets apace.
But as the sun, when he from noon declines,
And with abated heat less fiercely shines,
Seems to grow milder as he goes away [6, 18].

Endi buncha tez so'nib bormoqda u o‘z ufqida.
Xuddi namozshomda botayotgan quyosh kabi atrofni ravshan qilmas;
Issig‘i ham yondirmaydi, nuri ham yoritmas.
Uning yoshi o‘tib borishi bilan barchasi ketayotgandek [7, 27].

Yuqorida keltirilgan matndagi stilistik konvergensiyani struktur tahlil qiladigan va troplarni nomlaydigan bo‘lsak, quyidagilarga ajratish mumkin:

Mazkur parchada muallif Shoh Jahonning o‘rta yoshdan o‘tib, keksalikka yetib kelgan pallasini tasvirlar ekan, metafora va o‘xshatish stilistik vositalaridan samarali foydalanadi. "Sunk from his meridian" metaforasi orqali Shoh Jahon jismoniy va aqliy jihatdan eng yuqori cho‘qqisi, metaforik tilda, tezlik bilan "ufqdan" pasayib, "so'nib boryapti" deb ataydi. Biroq muallif uni quyoshga o‘xshatadi. Botib borayotgan bo‘lsa-da, kamroq nur taratsa-da, uni quyoshga mengzab, ko‘klarga ko‘taradi.

Parchada muallif tomonidan qo'llanilgan istiora va o‘xshatishlarning tuzilishini kuzatadigan bo‘lsak, ularni quyidagicha sharhlash mumkin. Ingliz tilida "to sink" (cho‘kmoq), "meridian" (meridian) so‘zlari alohida olinganda, ular tamoman boshqa kontekstda, bir-biriga mos tushmaydigan kollokatsiya bo‘lib, biri suv va suzish bilan bog‘liq, ikkinchisi geografiyaga oid konseptlar hisoblanadi. Lekin har ikkisi birikib, badiiy kontekstda yangi obrazni yaratib bergan. Kitobxon bu orqali navqironligi o‘tmishda qolgan, salobati va hukmronligi tanazzulga yuz tutgan hukmdor sifatida tushunadi. Xuddi shunday holatni quyoshga o‘xshatishida kuzatish mumkin. Botayotgan quyoshga o‘xshatish "But as the sun, when he from noon declines" orqali unga xos jihatlar ham Shoh Jahon obraziga nisbatan qo'llanilgan. "Abated heat less fiercely shines"ning tagma'nosi Shoh Jahonning qudrati zaiflashgani quyosh nurlariga taqqoslanib, avvalgidek yorqin emasligi misolida darg‘azablikdan tushishini ko‘rsatib bergan. Ko‘rinib turibdiki, ingliz tilining jozibasi va estetik bo‘yoqdorligiga erishish uchun muallif troplardan mahorat bilan foydalangan.

Xulosa. Xullas, Jon Drayden o‘z asarida *stilistik konvergensiya, jonlantirish, kinoya, troplar, gradatsiya, antiteza, epitet, inversiya* va boshqa stilistik vositalardan mahorat bilan foydalanganki, natijada asarni o‘qish davomida kitobxonga hissiy ta'sir qilish va o‘quvchi ongiga asar g‘oyasining chuqur singishiga yordam bergan.

Drama nutqida eng ko‘p uchraydigan stilistik konvergensiya jonlantirish bo‘lib, asosan, Drayden o‘z qahramonlarining ruhiy holatlarini tasvir etishda foydalangan. Xususan, Jon Draydenning "Avrangzeb" fojiasida ko‘proq mavhum tushunchalar (sevgi, taqdir, jasorat, o‘lim, guzallik, tun, kun), samo jismlari

(quyosh, yulduz, oy, osmon), tabiiy obyektlar (dengiz, daryo) hamda o‘simliklar shaxslantirilganligi aniqlandi. Shu bilan birga stilistik konvergensiyada jonlantirish tropi boshqa stilistik vositalar: metafora, giperbola, kinoya va ramzlar bilan hamohang kelgan.

Tasviriy (muayyan joy yoki obyektni tasvirlovchi), xarakterlovchi (personaj yoki subyektni tasvirlovchi), emotsional (his-tuyg‘u, kayfiyatni ifoda etuvchi), munosabatlarni izohlovchi (baholovchi pragmatik xususiyatli stilistik konvergensiya) hamda dolzarblikni ko‘rsatib beruvchi pragmatik xususiyatli (matnda dolzarb qism yoki qismlarini ajratib ko‘rsatuvchi) xususiyatli stilistik konvergensiyalar tahlil qilindi hamda har bir tematika bo‘yicha qo‘llanilgan stilistik konvergensiyalar sinchilab o‘rganib chiqildi. Xususan, tasviriy pragmatik funksiyali stilistik konvergensiya g‘oyaviy konsepsiyasiga binoan dramaturg urush va jang maydonlari tasviri, siyosiy vaziyatning tasvirlanishi, davlatdagi (tarixiy real) vaziyat tasviri va obrazga ta’rif beruvchi bo‘limlarga bo‘lib, ushbu tasnif doirasida voqelik tasvirida uchraydigan stilistik konvergensiyalarning lingvopragmatik xususiyatlari tadqiqot davomida ko‘rib o‘tildi. Har bir tasvirda xususiyatlariga ko‘ra qo‘llangan stilistik konverensiyalar voqelikning ta’sirchanligini oshirgan.

Jon Drayden dramasida stilistik konvergensiyalar adib maqsadini to‘laqonli ochib berishda xizmat qilgan. Adib dramada barcha stilistik vositalarni qahramonlari nutqida aks etttirib, ularning ruhiy holati va iztiroblari, alamlari, sevgisi va nafratini ifodalab bera olgan. Drama g‘oyasi ushbu badiiy-stilistik vositalar bilan mahorat bilan Draydencha uslubda ochib berilgan va bu bilan dramaturg jahon adabiyotshunosligida o‘z uslubini yarata olgan.

ADABIYOTLAR:

1. Нелькенбаум В.М. Особенности стилистической конвергенции в художественном тексте // Вестник Башкирского университета. – Т. 21. – 2016. – № 1. – С. 136–139. URL. https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-stilisticheskoy-konvergentsii-v-hudozhestvennom-tekste

2. Риффатер М. Критерии стилистического анализа // НЗЛ. Вып. IX Лингвостилистика. – Москва, 1980. – С. 88-89.

3. Сковородников А.П. Экспрессивные синтаксические конструкции современного русского литературного языка. – Томск, 1981. – 149 с.

4. Арнольд И.В. Стилистка современного английского языка: (Стилистика декодирования): Учеб.пособие. – 3-е изд. – М.: Просвещение, 1990. – 100 с.

5. Кузьменко С.А. Лингвопрагматические свойства конвергенции стилистических средств: Автореф. дисс. канд. филол.наук. – Ставропольский государственный университет, 2006. – С.13-17.

6. Drayden J. Aureng-Zebe. Act V, 1-10 lines. Ed. by Frederick M. Link, University of Nebraska Press. Lincoln, 1971. – P.95.

7. Очилова Д. Жон Драйденнинг “Аврангзеб” трагедияси. Таржима. – Тошкент: “Наврўз” нашриёти, 2014. – 275 б.